

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HO LIM SONG

**HOZIRGI O‘ZBEK VA UYG‘UR TILLARINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI
(FONETIK VA GRAFIK TIZIM ASOSIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Ho Lim Song

Hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillarining qiyosiy-tipologik tahlili (fonetik va grafik tizim asosida)..... 3

Ho Lim Song

Comparative-Typological Analysis of Modern Uzbek and Uyghur (based on Phonetics and Orthography)..... 25

Хо Лим Сон

Сравнительно-типологический анализ современного узбекского и уйгурского языков (на основе фонетической и графической системы) 49

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works
Список опубликованных работ..... 54

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

HO LIM SONG

**HOZIRGI O‘ZBEK VA UYG‘UR TILLARINING
QIYOSIY-TIPOLOGIK TAHLILI
(FONETIK VA GRAFIK TIZIM ASOSIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fil2295 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz va rus – rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdu.uz) hamda "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mahmadiyev Shavkatjon Suyunqulovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Sodiqov Qosimjon Pozilovich
filologiya fanlari doktori, professor

Abdushukurov Baxtiyor Bo'ronovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

O'zR FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli ilmiy kengashning 2024-yil "20" avgust kuni soat _____⁰⁰dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Samarqand davlat universiteti bosh o'quv binosi, 105. Tel.: (+99866) 240-38-49, faks (0 366) 239-11-40, (0 366) 239-12-47, E-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (68-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 240-38-49.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "05" avgust kuni tarqatildi.
(2024-yil "05" avgust dagi 12-raqamli reyestr bayonnomasi).



J.D.Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Z.M.Baynazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

D.B.Urinbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida bir martalik ilmiy kengash seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turli tillar yozuvlarida shakllangan fonetik va grafik tizimlarni o‘rganish, ularning tarixiy shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini xalqlar tomonidan yaratilgan badiiy-adabiy namunalar asosida baholash, bu boy lisoniy madaniyatning etnolingvistik omillarini aniqlash zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu fonetik va grafik tizimlarda turkiy xalqlarning tili, tarixi va madaniyatiga oid ma’lumotlar nomoddiy-ma’naviy shaklda saqlangan bo‘lib, ular umumjahon lisoniy merosining ajralmas qismi hisoblanadi. Shu sababdan Turkiston o‘lkasidagi tillarning tovush tizimi, yozuv va imlo islohotlari masalalarini o‘zbek va uyg‘ur tillari misolida qiyosiy-tarixiy o‘rganish, tadrijiy taraqqiyotini belgilash, o‘xshash hamda farqli xususiyatlarini ijtimoiy obyektiv hayot fonida yoritish zamonaviy turkiyshunoslikning dolzarb vazifalaridan biridir.

Dunyo tilshunosligida turkiy tillarning lisoniy-madaniy ildizlari, qadim va boy tarixga ega leksikografik manbalari, arab hamda fors mumtoz adabiyotining turkiy tarjimalari, bosma yozuv bilan bog‘liq litografiya va tipografiya masalalari hamda qarindosh tillarning sathlarini o‘rganish sohasidagi islohotlar bu soha lisoniy tizimini qiyosiy-chog‘ishtirma metod hamda usullari asosida tekshirishni taqozo etmoqda. Qardosh tillarni xalqlarning o‘zaro til va madaniyatlararo aloqalari hamkorligida yoritish, milliy tillarning shakllanish jarayoniga aloqador omillarni antroposentrik, lingvokulturologik, etnolingvistik va sotsiolingvistik paradigmalari asosida o‘rganishga doir izlanishlar olib borilmoqda. Hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillarining fonografik masalalarini tizimli ravishda o‘rganish bu soha birliklarining qiyosiy-tipologik xususiyatlari, dinamik hamda statik holati, lingvomadaniy va etnolingvistik imkoniyatlarini jahon tilshunosligining so‘nggi yutuqlaridan, zamonaviy tilshunoslikning yangi metodlaridan foydalangan holda tadqiq etish hamda bundan dunyo ilmiy jamoatchiligini xabardor etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ilm-fan taraqqiyotida milliy o‘zlikni anglash, ajdodlar ma’naviy-madaniy merosini tiklash, shu bilan birga, turkiy tilli davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy va madaniy munosabatlarning yanada barqarorlashish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “XIX asr oxiri va XX asr boshlarida bir qator sharq va musulmon mamlakatlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati Turkiston o‘lkasida teran tarixiy ildizlarga egadir. Biz xalqaro ilmiy markazlar, dunyo olimlari bilan hamkorlikda jadidlar faoliyatini yanada chuqur o‘rganishni dolzarb vazifa deb hisoblaymiz”¹, – degan fikrlari milliy uyg‘onish davrida yaratilgan turkiy adabiy tillarning imlo qoidalarini chuqur o‘rganish hamda jadid ziyolilarining tilimizni rivojlantirish va takomillashtirish yo‘lidagi xizmatlarini xolis baholashda ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Jadidlar merosini o‘rganishga bag‘ishlangan Xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yo‘llagan tabrigi. // <https://yuz.uz/uz/news/jadidlar-merosini-organishga-bagishlangan-xalqaro-konferensiya-ishtirokchilariga/>

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-mayda PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi, 2019-yil 21-oktabrda PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrda PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvarda PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari va 2019-yil 4-oktabrda PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi qarori hamda ushbu faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida turkiy xalqlar milliy tillarining tiklanish jarayoni, litografiya va tipografiyaning milliy tillar taraqqiyotidagi o‘rni, til va imlo siyosatiga oid islohotlar, bu islohotlarning tovush va yozuv tizimiga ta‘siri kabi masalalar o‘rganilgan. Xususan, V.Fierman o‘zbek tilining sobiq ittifoq parchalanishigacha bo‘lgan davlat tili sifatidagi loyihalani², I.Baldauf esa Turkistondagi turkiy milliy tillar islohoti tarixi masalalariga e‘tibor qaratgan³. A.Xolidning tadqiqotlarida Markaziy Osiyo bosma asarlar madaniyati va jadidlar davridagi o‘zbek milliy uyg‘onishi tarixi⁴, M.Uzman ilmiy izlanishlarida 1920-yillardan boshlangan o‘zbek yozuvidagi o‘zgarishlar jarayoni o‘rganilgan⁵. D.Brofi tadqiqotida milliy uyg‘onish davridagi sovet Turkistoni hududida nashr etilgan gazeta va jurnallarning uyg‘ur xalqi va milliy tilining shakllanishidagi o‘rni⁶, J.L.Frimanning ishida esa Sharqiy Turkistondagi matbaa sanoatining zamonaviy uyg‘ur lisoniy madaniyatiga ta‘siri masalalari tahlil qilingan⁷.

² Fierman W. Language Planning and National Development: The Uzbek Experience. – Berlin: De Gruyter Mouton, 1991. – 358 p.

³ Baldauf I. Schriftreform und Schriftwechsel bei den muslimischen Russland- und Sowjettürken (1850–1937): ein Symptom ideengeschichtlicher und kulturpolitischer Entwicklungen. (Bibliotheca Orientalis Hungarica, Vol. XL.) – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1993. – 782 p.

⁴ Khalid A. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia (Comparative Studies on Muslim Societies). – Oakland: University of California Press. 1999. – 400 p.; Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR. – Ithaca: Cornell University Press, 2015. – 444 p. (o‘zbekcha nashri: Xolid A. O‘zbekiston tavalludi: ilk SSSR davrida millat, imperiya va inqilob. – Toshkent: Akademnashr, 2022. – 424 b.).

⁵ Uzman M. Türkistanda dil tartışmaları Özbekçe'nin icat edilişi (1917-1940). Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Gazi universiteti, 2005. – 227 b.; Romanisation in Uzbekistan Past and Present. // Journal of the Royal Asiatic Society. 2010. № 20(1). – P.49-60.

⁶ Brophy D. Uyghur Nation: Reform and Revolution on the Russia-China Frontier. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 368 p.

⁷ Freeman J.L. Print and Power in the Communist Borderlands: The Rise of Uyghur National Culture. Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. – Harvard University, Graduate School of Arts & Sciences, 2019. – 441 p.

Uygʻur tilshunosligida fonetika va grafika tizimi A.Shamiyeva, T.Tolipov asarlarida⁸, shu bilan birga Shinjon uygʻurlarining uygʻur shevalari haqida olib borgan tadqiqotlaridagi fonetika masalalariga bogʻliq mulohazalar M.Usmonov, Mehroy, A.Yoqub, N.Soʻfi, I.Abdurahimlarning tadqiqotlarida⁹, hozirgi zamon uygʻur adabiy tilining muhim fonetik jihatlari esa R.F.Hann, A.Poʻlat, F.De Jonglarning ishlari doirasida muayyan darajada oʻrganilgan¹⁰. A.Abdulla, Y.Abaydulla va A.Raxmonlar oʻzlarining orfografik bibliografiyasida hozirgi uygʻur adabiy tilining eng soʻnggi imlo qoidalari va undagi fonologik oʻzgarishlar haqida batafsil maʼlumotlar berishgan¹¹. C.Vey, I.Mutiʼilarning ham hozirgi uygʻur yozuvining tarixiy rivojlanishiga oid tadqiqotlari mavjud¹². Yuqoridagilardan tashqari, B.Vaux, K.E.Pattillo, L.Bekker, C.Mayerlar olib borgan tadqiqotlarida uygʻur tiliga xos boʻlgan singarmonizm hamda regressiv assimilyatsiya hodisasi¹³, C.Mayer A.Makkollum va G.Azizlarning ilmiy maqolalarida esa uygʻur tilining fonologik masalalari tadqiq etilgan¹⁴.

Oʻzbek tilshunosligida tilimiz tovush tizimining taraqqiyoti va buguni, yozuv masalalari bilan bogʻliq muhim tadqiqotlar H.Neʼmatov, A.Abduazizov, Q.Mahmudov, M.Mirtojiev, H.Jamolxonov, Sh.Rahmatullayev, A.Umarov, Q.Sapayev, Q.Sodiqov, J.Eltazarov, D.Nabiyeva, H.Zokirova va boshqalarning tadqiqotlarida atroflicha yoritilgan¹⁵.

⁸ Шәмиева А. Уйғур тили грамматикаси. 1-қисми (Фонетика, морфология). – Алмута: Қазақстан дәләт оқуш педагогика нәшрийат, 1959. – 187 б.; Талипов Т. Фонетика уйғурского языка: очерки исторического развития. – Алма-Ата: Изд-во «Наука» Казахской ССР, 1968, 1987. – 255 с.

⁹ Osmanow M. Hazirqi zaman uyghur tili diʼaléktliri. – Ürümchi: Shinjang yashlar - ösmürler neshriyati, 1990. – 277 b.; Hazirqi zaman uyghur tilining Xoten diʼalékti. – Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati, 2004. – 374 b.; Hazirqi zaman uyghur tilining Lopnor diʼalékti. – Ürümchi: Shinjang yashlar-ösmürler neshriyati, 2006. – 517 b.; Mähäli (Mehroy). Wéiwúʼeryü Kāshihua yánjiü (Uygur tilining Koshgʻar shevasiga oid tadqiqot). – Běijīng: Zhōngyāng mínzúdàxué chūbānshè, 1997. – 230 p.; Yakup A. The Turfan Dialect of Uyghur. – Wiesbaden: Otto Harrassowitz Verlag, 2005. – 488 p.; Sopi N. Uyghur tili Ili éghizi heqqide tetqiqat. Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. – Markiziy millatlar uniwersiteti, 2010. – 345 b.; Abdurehim E. The Lopnor dialect of Uyghur: A descriptive analysis. Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. – University of Helsinki, 2014. – 219 p.

¹⁰ Hann R.F. Spoken Uyghur. – Seattle: University of Washington Press, 1991. – 632 p.; Polat A. Chaghatay uyghur tili heqqide mupessel bayan. – Běijīng: millatlar neshriyati, 2004. – 599 b.; De Jong F. A grammar of modern Uyghur. – Houtsma: Utrecht, 2007. – 278 p.

¹¹ Abdulla A., Ebeydulla Y., Raxman A. Hazirqi zaman uyghur tili. – Ürümchi: Shinjang xelq neshriyati, 2010. – 2254 b.

¹² Wei C. An Historical Survey of Modern Uighur Writing since the 1950s in Xinjiang, China. // Central Asiatic Journal. 1993. № 37(3/4). – B.249-322; Mutiʼi I. Uyghurlarning yéziqi we tili heqqide. – Běijīng: Milletlar neshriyati, 2013. – 761 b.

¹³ Vaux B. Disharmony and derived transparency in Uyghur Vowel Harmony. // NELS30, Havard University, 2001. – 28 p.; Pattillo K.E. The Typology of Uyghur Harmony and Consonants. // Rice Working Papers in Linguistics. University of Wisconsin-Milwaukee, 2013. №4. – 11 p.; Becker L. Vowel-consonant harmony in Uyghur. // Leipzig University, 2016. – 16 p.; Mayer C. Issues in Uyghur backness harmony: Corpus, experimental, and computational studies. Filol. fan. boʻyicha falsafa doktori (PhD) diss. – University of California Los Angeles, 2021. – 215 p.

¹⁴ Mayer C., McCollum A., Eziz G. Issues in Uyghur Phonology. // Language and Linguistics Compass, 2022. № 16(12). – 27 p.

¹⁵ Неъматов Х. Ўзбек тили тарихий фонетикаси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 92 б.; Абдуазизов А. Ўзбек тилининг фонологияси ва морфонологияси. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 134 б.; Махмудов Қ. Ўзбек тилининг тарихий фонетикаси. – Т.: Ижод, 2006. – 102 б.; Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – Т.: Фан, 2009. – 216 б.; Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. – Т.: Фан, 2013. – 424 б.; Nabiyeva D.A., Zokirova H.R. Oʻzbek tili fonetikasi. – Andijon: Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi ADU nashriyoti, 2016. – 105 b.; Содиков Қ. Эски ўзбек ёзма адабий тили. – Т.: Академнашр, 2021. – 592 б.; Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг янги алифбоси ва имлоси. – Т.: Университет, 1999. – 53 б.; Жамолхонов Х., Сапаев Қ. Имло муаммолари. – Т.: Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, 2007 – 192 б.; Eltazarov J.D. Oʻzbekistonda 20-asrda amalga oshirilgan yozuv va imlo islohotlari tarixidan (sotsiolingvistik tahlil). – Samarqand: SamDU nashri,

Yuqoridagi ilmiy maqolalar, darslik va o'quv qo'llanmalar zamonaviy o'zbek yoki uyg'ur tilining fonetik va grafik tizimi masalalarini o'rganishda muhim o'rin tutadi. Afsuski, o'zbek tilshunosligida hozirgi uyg'ur tiliga oid maxsus tadqiqotlar juda kam. O'tgan 30 yil davomida faqatgina uyg'ur tilshunosi F.Umarbekning tadqiqoti mavjud¹⁶. Undan avval ham o'zbek va uyg'ur tillarini qiyosiy o'rganishga e'tibor juda kam qaratilgan bo'lib, bu o'rinda sobiq ittifoq davrida K.K.Yudaxin, I.Farmonov, A.Matg'oziyev kabi olimlarning ilmiy ishlari hamda G'.Sadvaqasovning Farg'ona vodiysidagi uyg'ur lahjasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotini ko'rib o'tishimiz mumkin¹⁷. Shu o'rinda uyg'ur olimlari A.Ibrohim va A.Yoqublarning o'zbek va uyg'ur tillarining semantik va morfologik tadqiqiga qaratilgan ishlarini ham e'tirof etish lozim¹⁸.

Bu tadqiqotlarda turkiy tillar tarmog'ining qarluq lahjasiga mansub, qiyosiy-tipologik jihatdan nihoyatda bir-biriga yaqin hisoblangan o'zbek va uyg'ur tillarining tarixiy taraqqiyoti, lingvomadaniy aloqalari, fonetik va grafik tizimida yuz bergan o'zgarishlari, singarmonizm kabi masalalari maxsus tadqiqot obyekti bo'lgan emas.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi tarkibiga kiruvchi "O'zbek tili birliklarining funksional-stilistik va kognitiv-pragmatik tahlili masalalari" mavzusi yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari fonetik va grafik tizimining shakllanishi hamda tarixiy taraqqiyoti, qiyosiy-tipologik va etnolingvistik xususiyatlari, singarmonizm hodisasi va undagi tovush o'zgarishlarini tasnif qilish usullarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

hozirgi o'zbek va uyg'ur tillaridagi fonetik va grafik xususiyatlar, orfografik me'yorlar, yozuv va tovush munosabatlarini qiyoslash;

hozirgi o'zbek va uyg'ur yozuvi, ligaturalar imlosi hamda diakritik belgilarning kelib chiqishi va amaliy funksiyasini oydinlashtirish;

hozirgi o'zbek va uyg'ur tillari fonetik tizimidagi unli tovushlarni tarixiy fonetik tamoyillariga muvofiq tasniflash;

2017. – 120 b.; Жамолхонов Х., Умаров А. Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи (I китоб). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2017. – 460 б.; Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи (II китоб). – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2019. – 426 б.

¹⁶ Умарбек Ф. Ўзбек ва уйғур тилларидаги ўтган замон феълларининг бадиий нутқда ишлатилиши (таржима асарлари мисолида). Филол.фан. номз...дисс. – Тошкент, 1998. – 144 б.

¹⁷ Юдахин К.К. Узбекско-уйгурское языковые связи. // Изв. АН КазССР. №86. Серия уйгуро-дунганской культуры. Вып. I. – Алма-Ата, 1950. – С.28-30; Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик. (Ўша русча тезиснинг ўзбекча таржимаси). // Ўзбек тили ва адабиёти. 1958. №1. – Б.31-33; Фармонов И. Ўш шеvasида уйғур тили элементлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1959. №4. – Б.70-75; Матғозиев А. XIX аср ўзбек тилида уйғур тили элементлари // Ўзбек тили ва адабиёти. 1973. №1. – Б.39-42; Садвақасов Г. Язык уйгуров Ферганской долины: Очерк фонетики, тексты и словарь. – Алма-Ата: Изд-во «Наука» Казахской ССР, 1976. – 323 с.

¹⁸ Ibrahim A. Meaning and Usage of Compound Verbs in Modern Uighur and Uzbek. – Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. – University of Washington, 1995. – 474 p.; Yakup A. Uyghur and Uzbek, the Southeastern Turkic languages. // Robbeets M., Savelyev A. (tahrir ostida). The Oxford Guide to the Transeurasian Languages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – P. 411-429.

hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillari talaffuz me‘yorlari hamda fonetik tizimidagi singarmonizm hodisalari, tovush o‘zgarishlari bilan bog‘liq qoidalarni aniqlash;

hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillari fonetik xususiyatlarining transformatsiyasini aniqlash, ro‘y bergan muhim fonetik hodisalarni sharhlash va ularga tarixiy-geografik jihatdan tegishli izohlar berishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida qadimgi turkiylar va so‘g‘diylarning lisoniy-madaniy xususiyatlarini hujjatlashtirgan xitoycha, forsha va turkiycha manbalar, XX asrgacha va undan keyin Markaziy Osiyoda tarqalgan tatar, o‘zbek va uyg‘ur tili darslik va o‘quv qo‘llanmalari, 1920-yillardan hozirgacha o‘zbek hamda uyg‘ur adabiy tili imlo-qoidalari bo‘yicha hukumat nashrlarida chop etilgan bosma kitoblar, imlo lug‘atlari va ilmiy-tadqiqot ishlari tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek va uyg‘ur tillari fonetik va grafik tizimining qiyosiy-tipologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida areal (lisoniy-geografik), tarixiy-qiyosiy, etnolingvistik, qiyosiy-fonetik, diaxron tavsiflash, morfologik va grafik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

o‘zbek va uyg‘ur tillarida yaratilgan matnlardagi fonetik va grafik xususiyatlar, imlo qoidalarida kuzatilgan har xilliklar dalillanib, arab imlosiga xos bo‘lgan *hamza* va *ayn* kabi maxsus harflarning chig‘atoy imlosida keng ishlatilgani hamda ularning hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillarida an‘ana bo‘lib qolgan orfografik xususiyati aniqlangan;

hozirgi o‘zbek va uyg‘ur imlosining o‘zgarish jarayoni milliy uyg‘onish davridagi “Tatar imlosi”, “O‘zbekcha til qoidalari”, “Uyg‘urcha yozuv yo‘llari” kabi manbalar orqali ochib berilib, ikki til unli tovushlarining talaffuzi va ularning yozuvda aks etish jihatlari asoslangan;

arab yozuvli chig‘atoy tili matnlarida ishlatilgan *alif hamza* [ʾ], *alif madda* [Ā], *fatha* [-], *kasra* [-], *zamma* [-] kabi harakat belgilarining yozuvda pozitsion qo‘llanishi, ularning fonetik vazifalari hamda milliy uyg‘onish davridagi turkiy arab yozuvlarining *abjad* tizimidan *alifbo* tizimiga o‘zgarish jarayoni dalillangan;

hozirgi o‘zbek tili imlosi bilan isloh qilingan uyg‘ur imlosi o‘rtasidagi orfografik o‘xshashlik va farqlarga aniqlik kiritilib, uyg‘ur tilidagi tovush almashinuvi, tushib qolishi yoki orttirilishi singari fonetik hodisalarning hozirgi o‘zbek adabiy tili substrat qatlamida saqlanib qolgan transformatsiyasi isbotlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

qiyosiy tadqiqotlar jarayonida aniqlangan hozirgi o‘zbek va uyg‘ur yozuvlari, badiiy matn namunalari va bosma manbalar tadqiqi natijasida chiqarilgan xulosalar o‘zbek tilshunosligi uchun muhim ilmiy-nazariy ma‘lumotlar berishi, orfografiyaga oid nazariy va amaliy kurslarning tashkil etilishi, darslik va qo‘llanmalarning mukammallashuviga xizmat qilishi dalillangan;

tadqiqot natijalari bo‘yicha kelingan ilmiy xulosalarda orfografiya sohasining tarixiy taraqqiyoti va rivojlanish bosqichlari aniqlangan hamda ta‘limning barcha bosqichlarida orfografik qoidalarni o‘qitishning yanada takomillashtirish yo‘llari ilmiy asoslangan;

1999-yilda nashr qilingan soʻnggi xalqaro fonetik assotsiatsiya qoidalariga muvofiq hamda unifikatsiyalangan Xalqaro Fonetik Alifbo transkripsiya tizimi bilan oʻzbek tilshunoslari uchun tavsiya qilingan milliy transkripsiya va alohida ishlab chiqilgan har bir mustaqil transkripsiyalar oʻzaro solishtirilib, oʻzbek tili fonetikasi va dialektologiyasida unli tovushlar uchun maxsus harflarni toʻgʻri qoʻllanilishiga oid yangi amaliy fikrlar taklif qilingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi oʻzbek va uygʻur tillarini tilshunoslik doirasida qiyosiy oʻrganish borasidagi muammolarning aniq qoʻyilgani, tadqiqotga jalb qilingan yondashuv usullari, ishonchli ilmiy-nazariy manbalardan foydalanilganligi, tadqiqot usullarining ilmiy maqsadga muvofiqligi, tanlab olingan manbalarning tadqiqot predmetiga mosligi, nazariy fikr va xulosalar qiyosiy-tipologik, fonetik, grafik tahlil metodlari vositasida asoslanganligi, keltirilgan tahlil, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati hozirgi oʻzbek va uygʻur tillari fonetik va grafik tizimlari hamda ularning tarixiy takomili oʻxshashligini har ikki tilga oid yozma manbalarni taqqoslash orqali dalillanganligi, oʻzbek va uygʻur tillarining rivojlanish jarayonida tatar ziyolilarning salmoqli ulushi borligi isbotlanganligi, 1920-yillarda yangi oʻzbek tilini loyihalash jarayonidan oldin oʻzbek va uygʻur tillarining milliy til miqyosida koʻtarilishida Turkiston sarmoyadorlari va ziyolilarining harakatlari zamin yaratganligi ochib berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, oliy taʼlim muassasalaridagi taʼlim jarayonida “Oʻzbek tilshunosligi tarixi”, “Oʻzbek adabiy tili tarixi”, “Oʻzbek shevashunosligi”, “Oʻzbek tili fonetikasi”, “Turkiy tillarning qiyosiy fonetikasi” kabi fanlar boʻyicha maʼruza va seminar mashgʻulotlarini oʻtkazishda, dissertatsiya ishlarni yozish hamda darslik va oʻquv qoʻllanmalarni nashrga tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Hozirgi oʻzbek va uygʻur tillarining qiyosiy-tipologik tahlili (fonetik va grafik tizim asosida) muammosini tadqiq etishda olingan ilmiy natijalar asosida:

oʻzbek va uygʻur tillarida yaratilgan matnlardagi fonetik va grafik xususiyatlar, imlo qoidalarida kuzatilgan har xilliklar dalillanib, arab imlosiga xos boʻlgan *hamza* va *ayn* kabi maxsus harflarning chigʻatoy imlosida keng ishlatilgani hamda ularning hozirgi oʻzbek va uygʻur tillarida anʼana boʻlib qolgan orfografik xususiyati asosida olingan xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2017-2020-yillarga moʻljallangan PZ-20170927147-sonli “Qadimgi davrlardan XIII asrgacha boʻlgan turkiy yozma manbalar tadqiqi” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 26-dekabrda 01/4-2789-son maʼlumotnomasi). Natijada turkiy tilshunoslikka doir maʼlumotlar bazasi oʻzbek va uygʻur tillarining yozuvi tarixiga doir fikrlar bilan boyitilgan;

hozirgi oʻzbek va uygʻur imlosining oʻzgarish jarayoni milliy uygʻonish davridagi “Tatar imlosi”, “Oʻzbekcha til qoidalari”, “Uygʻurcha yozuv yoʻllari”

kabi manbalar orqali ochib berilib, ikki til unli tovushlarining talaffuzi va ularning yozuvda aks etish jihatlari asoslangan tavsiflaridan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetida 2022-2023-yillarda amalga oshirilgan IL-21091506-sonli “O‘zbek ismlarining izohli imlo lug‘ati va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihasining bajarilishida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 13-yanvardagi 04/1-97-son ma’lumotnomasi). Natijada o‘zbek tiliga o‘zlashtirilgan arab va fors nomlarini yanada aniqroq ifodalash va yozish imkoniyati paydo bo‘ldi. Masalan, [x] va [h] harfini chalkashtirib yuborish yoki [q] va [k] harfini almashtirish kabi keng tarqalgan xatolarga yo‘l qo‘ymaydigan ismlarning lug‘ati yaratilishiga xizmat qilgan;

arab yozuvli chig‘atoy tili matnlarida ishlatilgan *alif hamza* [ʾ], *alif madda* [ā], *fatha* [-], *kasra* [-], *zamma* [-] kabi harakat belgilarining yozuvda pozision qo‘llanishi, ularning fonetik vazifalari hamda milliy uyg‘onish davridagi turkiy arab yozuvlarining *abjad* tizimidan *alifbo* tizimiga o‘zgarish jarayoni to‘g‘risidagi xulosalardan Janubiy Koreya Respublikasining Hankuk chet tillar universitetidagi Markaziy Osiyo fanlari ilmiy-tadqiqot institutida 2022-2023-yillarda bajarilgan 2022-2193001-raqamli “National Support Project for Special Foreign Languages – Development and Publication of Kazakh Textbooks (A1, A2, B1, B2) (Maxsus xorijiy tillarini milliy qo‘llab-quvvatlash loyihasi – qozoq tili darsliklarini ishlab chiqish va nashr etish)” mavzusidagi fundamental loyihasining bajarilishida foydalanilgan (Hankuk chet tillar universitetidagi Markaziy Osiyo fanlari ilmiy-tadqiqot institutining 2024-yil 8-yanvardagi 20240108-07-12-son ma’lumotnomasi). Natijada, turkiy xalqlar o‘rtasidagi lisoniy madaniyat farqlarining aniq ko‘rinishini taqdim etish hamda zamonaviy o‘zbek, uyg‘ur va qozoq tillari o‘rtasidagi fonetik va grafik farqlar haqidagi ma’lumotlar bilan darsliklarning mukammallashtirishga erishilgan;

hozirgi o‘zbek tili imlosi bilan isloh qilingan uyg‘ur imlosi o‘rtasidagi orfografik o‘xshashlik va farqlarga aniqlik kiritilib, uyg‘ur tilidagi tovush almashinuvi, tushib qolishi yoki orttirilishi singari fonetik hodisalarning hozirgi o‘zbek adabiy tili substrat qatlamida saqlanib qolgan transformatsion xususiyatlari to‘g‘risidagi xulosalardan R.B.Suleymenov nomidagi Qozog‘iston Sharqshunoslik institutining 2020–2022-yillarga mo‘ljallangan AP-08856359-son “Turkiy Uyg‘onish davri Markaziy Osiyo intellektual tarixi kontekstida (X-XVI asrlar)” mavzusidagi loyihasida foydalanilgan (R.B.Suleymenov nomidagi Qozog‘iston Sharqshunoslik institutining 2024-yil 7-fevraldagi 46-son ma’lumotnomasi). Natijada turkiy linqvomadaniyatda alohida o‘rin egallaydigan qozoq etnolingvistikasi o‘zbek va uyg‘ur kabi turkiy xalqlarning lisoniy madaniyatiga oid yangi ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 15 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya

etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta maqola (4 tasi respublika hamda 1 tasi xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Uning umumiy hajmi 148 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning maqsad va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Mavzuning xorijda va mamlakatimizda o'rganilganlik darajasi qayd qilingan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchli ekanligi asoslangan, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sharqiy va G'arbiy Turkiston o'rtasidagi tarixiy-madaniy va etnolingvistik aloqalar”** deb nomlanib, uning **“Qadimgi davrda turkiy va so'g'd lisoniy madaniyati xususiyatlari”** nomli birinchi bo'limida turkiylar va so'g'dlar o'rtasidagi qadim zamonlardan to hozirgi kungacha meros bo'lib kelayotgan lisoniy madaniyat, xususan, ba'zi ko'chmanchi turkiylarning o'troqlashuvi haqida so'z yuritilgan.

Daslab tili, madaniyati va turmush tarzi jihatidan bir-biridan farq qiladigan bu ikki etnik guruh – turkiylar va so'g'dlar o'rtasidagi etnik-madaniy va lisoniy aloqalar tahlil etildi. Ko'chmanchi sivilizatsiyaga xos turmush tarzi Ikkinch Turk xoqonligi (682–744) davrida ham, turkiylar o'z yozuvini yaratgan paytda ham saqlanib qolgan edi. Bu esa turkiy yozuv VIII asrda mavjud bo'lsa-da, turkiy qabilalarning asosiy qismi hali uni ommaviy tarzda o'rganishga kirishmaganligini ko'rsatadi. Aksincha, tirikchiligi savdo-sotiqdan iborat bo'lgan so'g'd erkaklarining aksariyati kasbiy ehtiyoj tufayli xat-savodli bo'lgan. Chunki savdoni amalga oshirish uchun hisob-kitob yuritish zarur edi. VIII asrda yozilgan *“Mukammal huquq tarixi”* asarida qayd etilganidek: *“Samarqand aholisi tug'ma holda savdo-sotiqni afzal ko'rishadi, bolalari besh yoshida yozishni o'rganishi tabiiydir, so'ngra savdo bilan bog'liq kasbiy ta'limga e'tibor qaratishadi”*¹⁹.

Samarqandda o'troq manzilgohlar barpo etgan yuyechjilar aslida ko'chmanchi guruh sifatida vujudga kelgan. Ammo hunlar mag'lubiyatga uchragach, yuyechjilar Pomir platosi orqali voha hududiga ko'chib, mahalliy so'g'dlarning madaniyati va o'ziga xosligini qabul qilish jarayoni *“Shi szi”* va *“Oldingi Hannoma (漢書)”* kabi qadimgi xitoy tarixiy manbalarda qayd etilgan²⁰. Qadimgi turkiy xalqlar asta-sekin o'troq hayot tarzini qabul qilib, Ipak yo'lidagi

¹⁹ 「康國人並善賈，男年五歲則令學書，少解則遣學賈，以得利多為善。」（邊防九，西戎五，「康居」）杜佑『通典：全十二冊』 – 北京：中華書局，2016。 – P.5243.

²⁰ Bangu yuechji xalqini tasvirlashda Sima Syanning *“Shi szi”* asariga ko'p tayangan. Misollarni *“Oldingi Hannoma”* asarining 96-bo'limining 66-qismi (前漢書 卷 96 西域傳 第 66) dan topish mumkin, unda yuyechjilar jamoasining kelib chiqishi haqida batafsil ma'lumotlar berilgan.

iqtisodiy hayotga faol aralasha boshladilar, o'ziga xos yozuv va adabiyotni yaratishga kirishdilar.

Birinchi bobning **“O‘zbek va uyg‘ur xalqlari o‘rtasidagi etnolingvistik yaqinlik”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tili, yozuvining o‘zaro ta’siri va aloqalarining kelib chiqish masalasiga e’tibor qaratilgan. Ma’lumki, A.Samoylovich chig‘atoy turkiy tilining ilk shakllanishini X–XI asrlar Qoraxoniylar davri uyg‘ur tili bilan bog‘liq deb hisoblaydi²¹. T.N.Qori-Niyoziy esa yaqin davrgacha qo‘llanib kelingan arab yozuvining ahamiyatini e’tirof etgan holda, eski o‘zbek yozuvining kelib chiqishini VI–VII asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qadimgi uyg‘ur yozuvidan izlagan²². S.Malov ham o‘zbek adabiy tilining boshlanishini qadimgi uyg‘ur tilining shakllanishi bilan ayni bir davrda deb talqin qiladi²³. Shunday qilib, dissertatsiyada K.K.Yudaxin, A.Matg‘oziyev, G‘.Sadvaqasovlarning fikrlari asosida o‘zbek va uyg‘ur xalqlari o‘rtasidagi etnolingvistik umumiyliklar Qoraxoniylar davri (840–1212)dan boshlanib, hozirga qadar davom etayotgani bayon etiladi. Xususan, o‘sha davrda Markaziy Osiyodagi turkiylar islom dinini qabul qilishgan, arab va eski uyg‘ur yozuvlaridan foydalanib, Xoqoniya adabiy tilini yaratganlar. Shuningdek, XIII asrda mo‘g‘ullarning Markaziy Osiyoga istilosi boshlanganda, Turkiston aholisidan qarluq va uyg‘ur qabilasi allaqachon o‘troq jamoalarga o‘tib, shaharlarda yashab, barqaror ijtimoiy tuzilmani boshqarish bilan shug‘ullangan. Bu hol Rashiduddin Fazlulloh Hamadoniyning “Jome at-tavorix” tarixiy asarida mufassal bayon etilgan²⁴.

K.K.Yudaxin qadimgi turkiy badiiy-adabiy yodgorliklaridan “Qutadg‘u bilig”ning (XI asr) fanda mashhur bo‘lgan uch qo‘lyozmasidan biri Namanganda topilganligiga asoslanib, Ahmad Yassaviy (XII asr) va namanganlik Mashrab (XVII asr) asarlari ikki millat orasida keng ko‘lamda tarqalgan degan xulosaga keladi²⁵. Ushbu ikki tilning umumiy adabiy merosini rivojlantirish yo‘lidagi tarixiy hamkorligi har ikki hudud bo‘ylab hech qanday chegarasiz, hozirgi zamondan farqli o‘laroq hamjihatlik munosabatlari hukm surgan davrdan dalolat beradi. Tabiiyki, bu ikki til haqiqatan ham sezilarli darajada o‘zaro aloqada bo‘la boshlagan vaqt deb XVIII asrda uyg‘urlarning Yetti Shahrdan Farg‘ona vodiysiga ommaviy ko‘chishidan boshlanganligi aytiladi²⁶. Xullas, bugungi kunda o‘zbeklar va uyg‘urlar alohida millatlarga bo‘lingan bo‘lsa-da, XVIII, XIX asrlarda bu ikki xalq aniq etnolingvistik chegaralarga ega bo‘lmagan yagona Turkiston xalqi sifatida mavjud edi. Ayniqsa, Farg‘ona vodiysi va Yetti Shahr hududlarida ijtimoiy tuyg‘usi kuchli bir lisoniy-madaniy umumiylik mavjud edi. Masalan, Farg‘ona vodiysida tug‘ilgan Furqat, A.Zohiriy va Alixonto‘ra Sog‘uniylar uyg‘urlarni

²¹ Самойлович А.Н. К истории литературного среднеазиатско-турецкого языка. // Мир-Али-Шпр Сб. – Ленинград: АН СССР, 1928. – С.19-20.

²² Qari-Nijazij T.N. Ozbek tilinin eski va jani jazuvi toq'risidagi masalalar. – Taşkent: OzFan nashriyati, 1940. – B.5-7.

²³ Малов С.Е. Древние и новые тюркские языки. // «Известия Академии наук СССР», Отделение литературы и языка, том XI. вып. 2. 1952. – С.141.

²⁴ Rashiduddin Fazlulloh Hamadoni. Jome at-tavorix (1-jild). Ravshan M., Musaviy M. (tahriri ostida). – Tehran: Nashri al-burz, 1953. – B.139 (qavmi Uyg‘ur), 144 (qavmi Qarluq).

²⁵ Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик. – 1958. – Б.31.

²⁶ Matg‘oziev A. XIX asr ўzbek tiliда уйғур тили элементлари. – 1973. – Б.39.

begona deb emas, balki yagona Turkiston jamiyatining bir qismi deb bilishar edi. Biroq ular o'rtasidagi mushtaraklik tuyg'usi hali geografik cheklovlar va siyosiy taqdirni yengib o'ta oladigan darajaga yetmagan edi. Ya'ni Farg'ona vodiysidagi o'zbeklardan farqli o'laroq, voha va Xorazm hududi kabi uyg'urlar bilan yonmayon joylashmagan boshqa qismlaridagi o'zbeklar uyg'urlarni yaxshi tanimaganligi uchun ular bilan bir etnik tuyg'uni his qilmaganligidir. Samarqand O'zbekistonning ilk poytaxti bo'lganligi va G'ulja shahri uyg'ur jamiyati uchun boshlang'ich siyosiy markaz sifatida muhim rol o'ynaganligi sababli, o'zbek va uyg'ur milliy tillari o'rtasidagi orfografik me'yorlarning o'zgarishi bu ikki viloyatni bir-biridan ajratib turuvchi katta geografik masofa va o'sha yillardagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Birinchi bobning uchinchi bo'limi **“XIX asrda Turkiston milliy tilining shakllanish jarayoni”** deb nomlanib, unda XIX asrning ikkinchi yarimida shakllangan milliy sarmoyadorlar va ziyoli qatlam tomonidan adabiy til sifatida foydalanilgan chig'atoy turkiy tili hozirgi o'zbek adabiy tilining bevosita ildizi ekanligi amerikalik antropolog B.Anderson va tilshunos E.Haugen nazariyalari asosida dalillanadi. Andersonning fikricha, zamonaviy millatlarning etnik chegaralar va o'ziga xos jamoa tuyg'usi o'rta asrlardan so'ng kapitalistik tadbirkorlikning ilk shakli bo'lgan kitob, gazeta, jurnallar nashri keng tarqalishidan boshlanadi²⁷. Haugen fikricha, turli shevalar yagona bir milliy tilga aylanishi uchun to'rt bosqichdan o'tishi kerak: 1) tanlanish, 2) kodifikatsiya, 3) qaror qilish, 4) detallashtirish²⁸.

Birinchi, chig'atoy turkiy tiliga tarjima qilingan arab va fors mumtoz adabiyoti mustamlaka davrida tartib bilan ommabop nashr etilgani va bosma shakliga mos o'sha normaga tushirilgan til orqali milliy tuyg'ularning kuchayishiga hissa qo'shilgani tushuntiriladi. Masalan, XIX asr o'rtasida yashab ijod etgan Muhammadrizo Ogahiy (h. 1809–1874) kabi turkiy ziyolilar turli arab va fors mumtoz asarlarini turkiy tiliga tarjima qilish loyihasi bilan birga, o'zbek milliy tilining tug'ilishini tezlashtirgan yana bir tarixiy voqea – turkiy tillar lug'atini tuzish bilan shug'ullangan. Masalan, lug'atlardan oldin ham fors-turkiy yoki arab-turkiy tillar uchun izohli lug'atlar mavjud edi. Biroq Sulaymon Buxoriyning “Lug'ati chig'atoyi va turki usmoniy” lug'atshunoslikni semantik-qiyosiy tekshirishda ilg'or an'ana bo'ldi.

XIX asr boshidagi o'sha tarjima loyihasi faqat ma'lum feodal aristokratlarning homiyligi orqali bo'lsa-da, Rossiya imperiyasida paydo bo'lgan turkiy sarmoyadorlar qatlami katta kapitali bilan Yevropa va Rossiyadan bosma mashinalarni o'zlari bilan olib kelib, nashriyotchilikka kirishdilar. XIX asrdagi tarjima va nashr madaniyatining bu jamoaviy tajribasi chig'atoy turkiy tilining o'zbek va uyg'ur adabiy tillariga “tanlanish” va “kodifikatsiya” darajasidan milliy tilga rivojlanishi uchun zamin yaratdi.

Dissertatsiyaning **“Hozirgi o'zbek va uyg'ur yozuvlari shakllanishining qiyosiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida o'rta asrlardan beri turkiy xalqlar

²⁷ Anderson B. Imagined Communities Reflections on the Origin and Spread of Nationalism. – New York; London: Verso, 2006. – P.4-7.

²⁸ Haugen E. Dialect, language, nation. // American Anthropologist. 1966. №68. – P.933.

foydalangan turli yozuvlar (chigʻatoy turkiy tili uchun asosiy yozuv boʻlib qolgan arab yozuvi, XX asr boshida turkiy jadidchilar tomonidan qabul qilingan yangi arab, lotin, kirill yozuvlari)da qoʻllanilgan harflar va diakritik belgilar misollar asosida taqqoslangan.

Bobning **“Oʻzbek va uygʻur yozuvlariga meros boʻlib oʻtgan arab yozuvining xususiyatlari”** nomli birinchi boʻlimida *abjad* tizimiga kiruvchi arab yozuvining qanday oʻzgarganligi, uygʻur-arab yozuvi oʻzbek va tatar-arab yozuvlaridan oʻtib, mukammal *alifbo* tizimiga aylanib borishi haqida maʼlumot beriladi²⁹. *Abjad* tizimiga yaqin sof arab yozuvi unli harflarni yozishda jiddiy toʻsiqlar bor; turkiy tilda unli tovushlar arab yozuvidagi shakllarga nisbatan koʻp edi, faqat 3 ta unli harf [ى, و, ة] boʻlib, unlilar harfining ost-ustida diakritik belgilar – *harakat* bilan yoziladi³⁰; masalan, milliy uygʻonish davrida foydalanilgan tojik-arab yozuvida 6 xil harakat belgilari (*zabar, zer, pesh, hamza, sukun, tashdid*) rasmiy ishlatilganligini koʻrish mumkin³¹. Ammo yangi oʻzbek-arab yozuvida bu diakritik belgilar olib tashlanib, faqat hamza va pesh (*zamma*) belgisidan foydalanilgan. Yaʼni arab yozuvdagi barcha harakat belgilari alohida mustaqil harflar bilan almashtirildi: oʻzbek-arab yozuvida hamza belgisining eng koʻzga koʻringan roli quyidagicha – 1921-yildan beri oʻzbek-arab yozuvida hamza soʻzning birinchi boʻgʻinidagi unli uchun qoʻllangan³². Bular turkiy xalqlar islomni qabul qilganidan beri ming yillar davomida meros boʻlib kelayotgan arab imlosi anʼanasini yangilangan holda, abjaddan alifbo tizimiga oʻzgarayotgan yozuvdagi ilk qadam edi.

Ikkinchi bobning ikkinchi boʻlimi **“Yangi oʻzbek yozuvida unlilar tizimining ifodalanishi”**ga bagʻishlangan. Oʻzbek-arab yozuvi ilk bor 1919-yilda nashr etilgan “Bitim yoʻllari” kitobida rasman taqdim etilgan boʻlsa-da, oradan besh-olti yil oʻtib, taxminan, 1925-yildagi nashrlarda ommaviy qoʻllanila boshlaganga oʻxshaydi. 1925-yilda zamonaviy oʻzbek adabiyotining yagona durdonasi A.Qodiriyning “Oʻtgan kunlar” asari ana shu imlo asosida chop etilgan. Xususan, 1925-yilda nashr qilingan S.Zunnunning “Oʻzbekcha til qoidalari” darsligi avvalgi imlo qoidalariga qaraganda ancha mukammal tizimga ega. Bu kitobda oʻzbek arab yozuvida oltita unli harf (ئا - ئه - ئى - ئو - ئۆ)dan foydalanilgan, avvalgi fors-arab yozuvidagidan koʻra ikki baravar koʻpdir³³.

Ammo oʻzbek-arab yozuvining yangi konsepsiyasi oʻsha davrda tatar ziyolilari ijod qilgan yangi imlodan ilhomlanganini unutmashimiz kerak. Oʻzbek

²⁹ Amerikalik olim P.T.Daniels yozuvlarni uch toifaga ajratadi: 1) *abjad* – unli tovushlar ifodalanmaydigan, faqat undosh harflar bilan yoziluvchi; 2) *abugida* – undosh harflar asosida unli tovushlarning ham ifodalanishi; 3) *alifbo* – unli va undosh harflar mukammal ifodalanuvchi (zamonaviy ingliz tili uchun foydalangan lotin yozuvi bunga misol boʻla oladi). Daniels, P.T. Writing Systems. // The Handbook of Linguistics. Aronoff M., Rensselaer J. (tahrir ostida). – Oxford: Blackwell, 2003. – P.43-44, 54.

³⁰ Qari-Nijazij T.N. Ozbek tilinin eski va jani jazuvi toqʻrisidagi masalalar. – 1940. – B.9.

³¹ Alizoda S. Sarfu nahvi zaboni tojiki: baroi maktabhoi ibtidoiy va miyonayi tojikon. – Samarqand: Davlati jumhuriyat-ijtimoyi shuroyi Tojikiston, 1926. – B.12.

³² Ayniqsa, turkiy soʻzlarning ilk boʻgʻinidagi til oldi unli harflari ustida yoziladi. Ammo til orqa unli /o/, /u/, /o/ tovushlarini ifodalash uchun ushbu belgidan foydalanilmaydi. Hamza belgisining tatar unli harflari tarkibiga kiritilishi dastlab O.Ibrohimovning 1914-yilda chop etilgan “Tatar Imlosi” nashrida qayd etilgan. Boshqa tomondan, oʻzbekcha unli belgilaridan foydalangan tasvirini 1919-yildagi “Bitim yoʻllari” asarida koʻrish mumkin.

³³ Zunnun S. Oʻzbekcha til qoidalari (Qurular uchun imlo, qisqacha sarf-nahv). – Toshkent: Oʻzbekiston davlat nashriyoti, 1925. – B.7.

va uygʻur tillarining rivojlanish jarayoni nafaqat Turkiston hududida, balki Volgaboʻyi – Tatariston va Boshqirdistondagi oʻtroq turkiy xalqlarning tabiiy ijtimoiy-iqtisodiy tarmogʻida ham amalga oshirilganligini koʻrsatadi. Oʻsha paytda Turkiston oʻlkasiga joʻnatilgan O.Ibrahimov va F.Sayfi kabi tatar oʻqituvchilari Ufa, Qozon va Orenburgda nashr etilgan yangi turkiy darsliklardan foydalanib, qozoq, oʻzbek va uygʻur talabalariga saboq berganlar. Gʻarb-Yevropa madaniyati bilan birmuncha erta tanishgan tatar ziyolilari arab yozuvidagi cheklovlarni yengib, oʻz tillariga xos xususiyatlarni yozuvda aks ettirishga muvaffaq boʻldilar. Masalan, tatar tili grammatikasiga oid kitoblarda faqat soʻzning oxirgi boʻgʻinida yozilgan [ʌ] – *hayi rasmiya* harfi alif harfi bilan teng darajaga koʻtarildi. Shningdek, turkiy tillarga xos fonologik oʻzgarishlarni hisobga olish uchun old qator /æ/, /i/, /ø/ va /y/ unli tovushlari ifodalangan unli harfning ustiga hamza belgisi qoʻyilgan, orqa qator unliharfga esa /o/ va /u/ mavjud alif harfi bilan yozishni saqlab qoldi³⁴. Uchinchidan, tatar ziyolilari orqa qator /o/ va /u/ unlisini mos ravishda [ɔ] *toʻliq vov* va [ɤ] *qisqa vov* deb yozuvda ajratishgan. Bu islohot oʻsha paytda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan arab yozuviga nisbatan jiddiy yangilanish boʻlib, turkiy unli tovushlarini aniqroq ifodalash imkonini berdi hamda barcha islohot unsurlari “Chigʻatoy gurungi” adabiy-lisoniy guruhi orqali yangi oʻzbek tili imlosini shakllantirishda samarali foydalanildi.

1920-yillarning oʻrtalaridayoq oʻzbek-arab yozuvi har taraflama qoʻllanila boshlanganda, turkiylar Onadoʻlidan Fargʻona vodiysigacha boʻlgan umumjahon hududda barcha turkiy xalqlar tillarini birlashtiradigan yagona turkiy yozuvini yaratishga intildilar. Bu jarayonda hal qilinishi kerak boʻlgan, eng koʻzga koʻringan birinchi muammo unliharflarning soni va ularning ifodalanishi edi. Fargʻona vodiysi va Toshkentda toʻqqizta unli harf (a, ə, e, i, ɛ, o, ø, u, y)ni qabul qilishadi³⁵. Bu turk, ozarbayjon, qozoq, qirgʻiz tillarda keng eʼtirof etilgan singarmonizm hodisasining yozuvda toʻliq aks etishining natijasidir. Biroq vodiy emas, voha tarafidagi ziyolilar umuman boshqa fikrda edilar. Buxoro viloyatidagi til oʻqituvchilari vodiydagilardan farqli oʻlaroq, singarmonizm hodisasini rad etib, oltita unli harf (a, ə, e, i, o, u)ni rasmiylashtirishni talab qiladilar³⁶.

1929–1934-yillarda boshqa turkiy tillari imlosi bilan uygʻunlashtirish maqsadida oʻzbek ziyolilarining unliharflar uygʻunligini (singarmonizm) asosiy tamoyil sifatida oʻrnatish borasidagi saʼy-harakatlari natijasi oʻlaroq toʻqqizta unli harf rasmiy ravishda alifboga kiritildi. Ammo 1934-yilda qayta koʻrib chiqilgan alifboda oltita unli harf qabul qilindi³⁷. Bu vaqtda oʻzbek-lotin yozuvi bir tovushni

³⁴ Sayfi F. Tatar tili darslari: (imlo qoidalari va terminlari insho uchun savol va pilonlar). – Qozon-Upa: Sabah shirketi, 1916. – B.11.

³⁵ Andijon tilchilarining fikrlari. (Qizil Oʻzbekiston, №40, 1929); Margʻilon tilchilarining fikrlari (Qizil Oʻzbekiston, №66, 1929); Toshkent tilchilarining fikrlari. // Til-imlo masalalari (maqola va materiallar toʻplami). Yoʻldosh A. (tahrir ostida) – Samarqand-Toshkent: Oʻznashr, 1929. – B.331-334; 334-336; 336-343.

³⁶ Ilk oʻzbek-arab yozuvida hamza qoʻllanishi tatar-arab yozuvi kabi ingichka unli /æ/, /i/, /ø/ va /y/ tovushlarini aks ettirgan. Boshqa tomondan, Samarqand-Buxoro mintaqasidagi koʻp sonli fors-tojik tilida soʻzlashuvchilar bilan birga yashagan yoki ularga yaqin turgan oʻzbeklar unli tovushlarni qalin va ingichka turiga tasnif qilishidan bexabar boʻlgan boʻlardir. Yangi alifbo va singarmonizm masalasida bizning fikrimiz. (Ozodi Buxoro, № 17, 1929.) // Til-imlo masalalari (maqola va materiallar toʻplami). Yoʻldosh A. (tahrir ostida). – Samarqand-Toshkent: Oʻznashr, 1929. – B.255-256.

³⁷ Ramazan Q. Ozbek tilinin birlashtirilgan imla qoidalari. – Taşkent: OzSSR davlat nashriyati, 1935. – B.18.

bir harf bilan ifodalash – alifboning asosiy tamoyilidan uzoqlashib, bir harf bilan bir necha tovushni talaffuz ifodalash tamoyili kirib keldi. Ajoyib tomoni shundaki, 1929–1934-yillarda qo‘llanilgan birinchi lotin yozuvi o‘sha yillari amalda bo‘lgan tojik-lotin yozuvidan sezilarli farqlansa-da, 1934–1940-yillarda qo‘llanilgan ikkinchi lotin yozuvida esa turkiy tilning tipik fonologik xususiyati bo‘lgan singarmonizm harflari [ø], [y] va [ɛ] olib tashlanib, unlilar tizimi sifat va miqdor jihatidan tojik-lotin yozuvining unli harflariga yaqinlashdi. Shu bilan birga, 1940-yilda qabul qilingan kirill yozuvidagi unlilar bilan deyarli bir xil ekani ham ko‘zga tashlanadi³⁸ (o, a, e, i, ī, ū, u, ū). Bu davrda vujudga kelgan olti unli harfi (o, a, ə, и, ŷ, y) hozirgi o‘zbek tilida o‘zgarmagan holda saqlanib qolgan.

Ikkinchi bobning uchinchi bo‘limi **“Yangi uyg‘ur yozuvida unlilar tizimining ifodalanishi”**ga bag‘ishlanadi. Turkiston o‘lkasidagi uyg‘urlar uchun adabiy til loyihasi allaqachon milliy tilni shakllantirish jarayonidan o‘tgan sovet turkiy xalqlari yordamida amalga oshirilgan. Tabiiyki, 1940-yillardan keyin SSSRda tarix sahifalaridan yo‘qolganidek tuyulgan arab yozuvi Shinjon o‘lkasida qayta jonlangani ajablanarli emas edi. Buning sababi shundaki, shimoldagi Ili viloyatiga tutashgan Yettisuv hududi ham Yetti Shaharga yaqin joylashgan Farg‘ona viloyati SSSRdagi uyg‘urlarning ijtimoiy-siyosiy markazi bo‘lib, sobiq Ittifoqdagi tatar, o‘zbek va Shinjon uyg‘urlari o‘rtasida ko‘prik bo‘lib xizmat qilgan. Shuningdek, yangi arab yozuvi sovet uyg‘urlari orqali 1920-yillardan buyon Shinjon uyg‘urlariga asta-sekin o‘tib, 1954-yildan boshlab Shinjon uyg‘urlarining ko‘pchiligi shu yozuvni ishlata boshladi.

1924-yildagi ilk uyg‘ur-arab yozuvi tatar va o‘zbek-arab yozuvlari bilan deyarli bir xil edi, lekin uyg‘ur yozuvi qabul qilingan arab tiliga xos [ع] *ayn* va [ح] – *hayi hati* harflaridan foydalanmadi. Unli harflar esa xuddi o‘zbek-arab yozuvidagidek oltita harfdan iborat bo‘lib (ئا - ئه - ئي - ئى - ئو - ئۆ), tatar yozuvidak old qator tor unli /i/ ni ifodalash uchun alohida [ئى] – *yayi zamma*³⁹ harfi ham qo‘llanildi. Shuningdek, uzoq vaqtdan beri arab va fors tillari orqali turkiy tillarga kirib qolgan jarangsiz sirg‘aluvchi /f/ tovushi lab-lab tovushi /p/ ning ifodalovchi [پ] harfiga almashtirib yoziladi⁴⁰.

Keyinchalik birinchi uyg‘ur-lotin yozuvida jami sakkizta unli harf (a, ə, e, i, o, ø, u, y) tanishtirilib, faqatgina dastlabki uyg‘ur adabiy tili loyihasida Yettisuv shevasining ustunligi natijasida orqa qator, lablanmagan /w/ unlisini ifodalovchi [ɛ] harfi qabul qilinmagan⁴¹. Bu davrda tizimlashtirilgan sakkiz unli hozirgi uyg‘ur imlosi uchun asos bo‘lgan.

1951-yilgi uyg‘ur-arab yozuvi xuddi lotin va kirill yozuvlarining yaratilish jarayonida bo‘lgani kabi, asosan, SSRdagi uyg‘ur ziyolilari tomonidan ishlab

³⁸ Tojik-lotin yozuvining sakkiz unli harflari cho‘ziq unlilar /i:/ va /u:/ni ifodalovchi [ī] va [ū] harfidan tashqari, ikkinchi o‘zbek-lotin yozuviniki bilan deyarli bir xil edi. (/i:/ va /u:/ unlisi hozirgi o‘zbek-lotin yozuvida [iy] harf birikma shakli va [u] harfi bilan yoziladi).

³⁹ A.Muhammadiy uyg‘ur adabiy tili uchun birinchi imlo kitobi 1926-yilgi “Uyg‘urcha yozuv yo‘llari” asarida “yayi zamma”dan emas, balki [ئى] – “yayi hamza”dan foydalangan.

⁴⁰ Ensari L. Birinchi bilik (resmlik uyghur elifbesi: yengi imlo wa oz herf hem avazlarimiz bilan tuzuldi). – Tashkent: Orta asiya dewlet neshriyati. 1924. – B.56-57.

⁴¹ Ənsari L. 2-Ujōqur til-impla kənpirinsusiniñ toxtamliri (Qazaqıstan maarip kəmisarijati, ilmi kenişniñ tapşurşı bojica jezildi). – Almati: Qazaqıstan basmisi, 1932. – B.15.

chiqilgan. Natijada sakkizta unli tovush (/a/, /æ/, /e/, /i/, /o/, /ø/, /u/, /y/)ni ifodalash uchun oltita unli harf qabul qilingan⁴² (ئا - ئە - ئى - ئې - ئۆ - ئۇ).

1951-yildagi o'sha arab yozuvi 1954-yilda Shinjon uyg'urlari tomonidan ba'zi kichik muammolarni tuzatgan holda qayta ko'rib chiqilib, qabul qilingan. Masalan, 1951-yildagiga nisbatan unli tovushlarni yanada murakkab va oqilona ifodalashga o'tilgan. Ya'ni /e/, /i/, /j/ tovushlarini ayirib, to'liq ifodalash uchun /i/ → ئىشق /ʔiʃq/; /e/ → ئېرىق /ʔeriq/; /j/ → ياش /jaʃ/ shaklida yoziladi⁴³.

2.1-jadval.

1920-yillardan hozirgi kungacha old qator unلیلarning ifodalanishi (ShUAR: Shinjon Uyg'ur Avtonum Rayoni, QozSSR: Qozog'iston SSR)

Yozuv (vaqt)	/i/	/ʔiʃq/	/e/	/ketʃæ/	/j/	/jaʃ/
Arab (~XIX asr)	اي - يى - ى	عشق	اي - يى - ى	كېچە/كچه	يى - يى - ى	ياش
Uyg'ur (1924)	ئى - ئى - ئى	ئىشق	ئى - ئى - ئى	كېچە	يى - يى - ى	ياش
O'zbek (1925)	ئى - ئى - ى	عشق	ئې - ئې - يى	كېچە	يى - يى - يى	ياش
QozSSR (1951)	ئى - ئى - ى	ئىشق	ئى - ئى - يى	كچە	يى - يى - ى	ياش
ShUAR (1954)	ئى - ئى - ى	ئىشق	ئې - ئې - يى	كچە	يى - يى - يى	ياش
ShUAR (1984)	ئى - ئى - ى	ئىشق	ئې - ئې - يى	كېچە	يى - يى - يى	ياش

1964-yilda arab yozuvi o'rniga xitoycha transkripsiyaga asoslangan yangi lotin yozuvi (uyg'ur yangi yozuvi: UYY) yaratildi. UYY ga avvalgi lotin (1928) va kirill (1947) yozuvlari kabi ikkita qo'shimcha [ø] va [ü] harflari kiritildi⁴⁴. Ammo UYY keng joriy qilinishidan o'n yil o'tmay, uyg'urlar Den Syaopin rejimining islohot va ochiqlik siyosati tufayli yana arab yozuviga qaytishga qaror qildilar. 1982-yili ilk mustaqil ijodiy arab alifbosi loyihasi e'lon qilindi. 1984-yildan esa arab yozuviga UYYning ikki til oldi harfi – [ø→ؤ] va [ü→ؤ] qo'llanishi bilan 1930-yillardagi sakkiz unلیلlar tizimiga qaytildi⁴⁵.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Hozirgi o'zbek va uyg'ur tillarining fonetik xususiyatlari**” deb nomlanib, jonli til namoyandasi egallangan uyg'ur tilidagi turli xil unلیلlar uyg'unligi, tovushlar o'zgarishi kabi hodisalar o'zbek tilining bugungi fonologik xususiyatlari bilan qiyoslab o'rganildi va ma'lum tarixiy fonetik qonuniyatlar asosida ro'y bergan ikki til o'rtasidagi farqlar va umumiyliklar ochib berildi.

Uchinchi bobning birinchi bo'limi “**Xalqaro fonetik alifbo (XFA) asosidagi o'zbek va uyg'ur unli tovushlar tizimi**” deb nomlangan. XFA jahon standartlariga mos fonetik transkripsiya tizimi bo'lib, har xil maqsadlarda ishlatilishi mumkin. Masalan, turli xorijiy tillarni o'rganayotgan tilshunoslarga, shuningdek, ta'lim sohasida chet tillarini o'rgatuvchi va o'rganayotganlarga katta yordam beradi; lug'at tuzish, xalq orasida og'zaki nutq (dialektlar)ni yozib olish,

⁴² Hesenow Q. Uyghur edibiy tilining erip elipbesi asosidiki qisqiche imla qaidiliri. – Almuta: Qazaq eli zhurnalining neshriyati, 1951. – B.5.

⁴³ Zeydi M. Uyghur edibiy tilining qisqiche imla qaidilri. – Urumchi: Shinjang xelq neshriyati, 1954. –B.5.

⁴⁴ Wei C. An Historical Survey of Modern Uighur Writing since the 1950s in Xinjiang, China. – 1993.– P.295.

⁴⁵ ShUAR milletler til-yéziq xizmiti komitéti. Uyghur yéziqining élipbesi we uyghur edibiy tilining imla qaidisi. – Ürümchi: Shinjang shinxua basma zawudi, 1983. – B.4-5.

yozuv tizimining asosini yaratish yoki akustik va boshqa tovush qiymatlarini to‘g‘ri izohlash kabi vazifalarning barchasi XFA orqali bajariladi⁴⁶.

O‘zbek tilshunosligida XFA kabi takomillashtirilgan baynalmilal fonetik transkripsiyadan emas, balki har bir tadqiqotchi o‘ziga ma’qul transkripsiya tizimidan foydalanadi. Shu holatdagi nomuvofiqlik o‘zbek va boshqa turkiy tillarni qiyosiy o‘rganishga katta to‘siq bo‘lmoqda. Ushbu bo‘limda sobiq sovet-rus olimlari qo‘llagan fonetik transkripsiya va hozirda o‘zbek olimlari tomonidan qo‘llanilayotgan milliy transkripsiya bilan bog‘liq pragmatik kamchiliklar muhokama qilindi. Shuningdek, mahalliy tilshunoslar afzal ko‘rgan turli shaxsiy transkripsiyalarga tayanish o‘rniga, o‘zbek fonetikasi va dialektologiyasi sohasi uchun standart sifatida XFA qabul qilish muhimligi ta’kidlandi. Va nihoyat, hozirgi mahalliy transkripsiyalarning XFA qoidalariga qanday mos kelishi unlilar tizimi asosida tahlil qilindi.

Uchinchi bobning **“O‘zbek va uyg‘ur tillarida singarmonizm hodisasi”** deb nomlangan ikkinchi bo‘limida XFA asosida o‘zbek va uyg‘ur tillarining fonologik xususiyatlari taqqoslanib, ikki til o‘rtasidagi fonetik o‘xshashlik va farqlar ko‘rsatildi. O‘zbek tiliga nisbatan uyg‘ur tilida jonli tilining xususiyatlari ko‘proq bo‘lib, talaffuzi tez va qulaydir. Tabiiyki, uyg‘ur tilining eng ko‘zga ko‘ringan fonologik xususiyatlaridan biri sakkiz unli artikulyatsiya qilinadigan singarmonizm hodisasi. So‘zning birinchi bo‘g‘inidagi unli tovushning sifatiga ko‘ra keyingi bo‘g‘indagi unli tovushlarning sifat jihatdan o‘xshashligiga unlilar uyg‘unligi yoki singarmonizm deyiladi. Turkiy tillarda unli tovushlarning uyg‘unlashuvi ikki asosga ega: 1) tanglay uyg‘unligi (palatal garmoniya); 2) lab uyg‘unligi (labial garmoniya).

Uyg‘ur tiliga xos tanglay uyg‘unligi shundaki, so‘z asosidagi ma’lum unli va undoshlar suffiks bilan uyg‘unlik hosil qilib, keyingi tovushlarning tegishlicha o‘zgarishiga sabab bo‘ladi. Ya’ni o‘zakdagi yoki undosh ta’siridagi unli suffiksdagi unli bilan uyg‘un holda talaffuz qilinadi. Ayniqsa, old qatorga mos keladigan /y/, /ø/ unlisi ham old qator /æ/, /i/ unlisi, orqa qator unli /u/, /o/ orqa qator /ɑ/, /u/ unlisi bilan bog‘lanadi. Chet tillardan kirgan so‘zlar hamma vaqt ham bu qoidaga bo‘ysunmaydi. Masalan, Turkistonda arab va fors tillaridan o‘zlashgan so‘zlar qariyb ming yil davomida o‘zgarmagan holda yozilgan va o‘qilgan, shuning uchun ham bu o‘zlashma so‘zlarda unlilar uyg‘unligi kam uchraydi. Rus, xitoy, ingliz va hokazo tillardan yangi kirgan so‘zlar tanglay uyg‘unligi qonuniga bo‘ysunmaydi. Masalan, forsha خدمتکار /xɪdmætkaːr/ so‘zi palatal garmoniyaga bo‘ysunmaydi. Shunday qilib, uning uyg‘urchadagi خزمەتکار /xɪzmætkaːr/ negizidagi old qator /æ/ unlisi va qo‘shimchadagi orqa qator /ɑ/ unlisi ham bir-biriga moslashmaydi.

Ammo o‘zbek tiliga nisbatan uyg‘ur tilida tanglay uyg‘unligidan tashqari, boshqa turkiy tillardan farq qiluvchi muhim fonetik o‘zgarishlar mavjud. Uyg‘ur va o‘zbek tillari bo‘yicha chuqur ilmiy izlanish olib borgan turkolog G.Jarring 1978-yilda Koshg‘ar shahriga qilgan safari chog‘ida davlat lavozimdagi

⁴⁶ International Phonetic Association, Handbook of the International Phonetic Association: A Guide to the Use of the International Phonetic Alphabet. – Cambridge: Cambridge University Press, 1999. – P.3.

mutasaddilar Koshg'arda tug'ilganiga qaramay, Ili shevasida gaplashayotganini ko'rganligini, uni o'sha davrning nafosatli va madaniyatli uyg'uri deb ta'riflaganini aytadi⁴⁷. Shimoliy shevalarga xos bo'lgan *i-umlaut* hodisasi, ya'ni regressiv assimillatsiya hodisasi hozirgi kunda sezilarli darajada namoyon bo'ladi⁴⁸. Masalan, uyg'ur tilidagi "(uning) ati" so'zi boshqa turkiy tillardagidek /atu/ emas, balki /eti/ yoki /iti/ deb talaffuz qilinadi (turk, ozariy: *ati*; tatar, qozoq, va qirg'iz: *amy*). Shungdek, bu hodisa uyg'ur tilini boshqa turkiy tillardan ajratib turgani uchun A.Po'lat, A.Inoyat, A.Jalil kabi ba'zi mahalliy tilshunoslar orasida qattiq qarshilikka uchradi.

Avvalgi bobda ham ko'rib o'tilganidek, 1929-yilda arab yozuvidan lotin yozuviga o'tgan yangi o'zbek va uyg'ur tillarida lab ohangi uchun bir xil harf qabul qilingan. Birinchi o'zbek-lotin yozuvida jami to'qqizta unli harf bo'lsa, uyg'ur-lotin yozuvida sakkizta unli harf rasmiy ishlatilgan. Har ikkala yozuvda ham old qator unli harflar [ə] va [y] mavjud bo'lib, lab garmoniya hodisasini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Ammo qisqa muddatda amalga oshirilgan o'zbekcha lab garmoniyasi hozirgi uyg'urchadan ko'ra ikki jihatdan farqlanadi:

1) o'zbek tilida lab ohangi so'zning yolg'iz ikkinchi bo'g'iniga qadar saqlanadi, uchinchi bo'g'inida o'z kuchini yo'qotadi (*køryniş, qurulbş*). Aksincha, uyg'ur tilida 1928-yildan beri uchinchi bo'g'inda ham saqlanadi (*kørynyş, quruluş*).

2) o'zbek tilida o'zaklarga qo'shimchalar qo'shib yasalgan fe'l shakliga kirgan so'zlar birinchi bo'g'inda (/o/, /ø/, /u/, /y/) tovushlari kelsa, ikkinchi bo'g'inda (/u-i/) tovushlari keladi, lab ohangi saqlanmaydi⁴⁹ (*kørdym*→*kørdim*, *bol-up*→*bol-ьb*, *køryp*→*kør-ib*).

2.2-jadval.

1928-yildan hozirgacha bo'lgan lab ohangining ko'rinishlari

O'zbek (1929)	kørdim	bolsın	køriб	kømyr	bølym	toqru	køryniş
O'zbek (1934)	kordim	bolsin	korib	komur	bolum	toqri	koruniş
O'zbek (1995)	ko'rdim	bo'lsin	ko'rib	ko'mir	bo'lim	to'g'ri	ko'rinish
Uyg'ur (1928)	kørdym	bolsun	køryp	kømyr	bølym	toqru	kørynyş
Uyg'ur (1984)	kørdüm	bolsun	kørup	kømür	bølüm	toghra	kørünüş
Turk (1928)	gørdüm	olsun	gørünce	kømür	bølüm	doğru	gørünüş

Ammo 1934-yilda qayta ko'rib chiqilgan ikkinchi til imlo qoidalarida o'zbek tilidagi lab ohangi qonuni uyg'ur tiliga qaraganda ancha cheklangan. Bu xususiyat bugungi o'zbek imlosida ham davom etmoqda. Masalan, hozirgi o'zbek adabiy tilida ot va fe'llarning turlovchi va tuslovchilari o'zgargan, faqatgina ayrim so'zlarda (*urg'u, burg'u* kabi) qisman saqlanib qolgan⁵⁰.

Uchinchi bobning uchinchi bo'limi "**O'zbek va uyg'ur tillari tovush o'zgarishlarining o'xshash va farqli xususiyatlari**" deb nomlangan. Avvalo, A.Matg'oziyevning tadqiqotiga ko'ra, Sharqiy va G'arbiy Turkistonda

⁴⁷ Jarring G. Return to Kashgar. Claeson E. (tarjima ostida.) – Durham: Duke University Press, 1986. – P.141.

⁴⁸ Jarring G. The New Romanized Alphabet for Uighur and Kazakh and some Observations on The Uighur Dialect of Kashgar. – Central Asiatic Journal. 1981. № 25(3/4). – P.238.

⁴⁹ Ыбраһым S., Раһман M., Хоҷаһанов Ө.Т. Ўзбек тилининг ыmla луқатъ. – Тошкент: ӨзSSÇ ДӨВ. NӨŞR, 1932. – B.20.

⁵⁰ Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. – 2009. – Б.151-152.

foydalangan chig‘atoy turkiy tilining variantlari o‘rtasidagi dialektik farqlar XIX asrda, ya‘ni o‘zbek va uyg‘ur tillariga bo‘linishdan oldin ham mavjud edi. Masalan, “Oxun” deb atalgan uyg‘ur kotiblari tomonidan ko‘chirilgan yozma manbalar quyidagi orfografik xususiyatlarga ega⁵¹:

1) ba‘zi so‘zlarning oxirgi bo‘g‘inida [ى] harfini [ه] harfiga yozish, masalan, *yetti* → *yetta* kabi. Hozirgi uyg‘ur adabiy tilida ham *ئالتى olti* → *الته alte* deb, o‘zbek tilidagi /i-w/ tovushi /ε-æ/ unlisi bilan talaffuz qilinadi⁵²;

2) [آ] harfini [او] – alif bilan vovning birikma shakliga, ya‘ni o‘rta-keng /o/ unlisini o‘rta-tor /o/ unlisiga almashtirish, masalan *اچىق ochiq* → *اوچوق o‘chuq* kabi. Bu hodisa o‘zbek tilidagi /o/ tovushining artikulyatsiya o‘rni /o/ ga yaqin bo‘lgani uchun yuzaga keladi;

3) [ن] harfini [م] harfiga, ya‘ni to‘liqsiz assimilyatsiya hodisasi tufayli alveolar /n/ lab-lab /m/ tovushiga o‘zgarib yozish, masalan *شونداق shundoq* → *شومداق shumdoq* kabi. Bu hozirgi o‘zbek va uyg‘ur tillarida birgalikda ba‘zan uchraydigan fonetik o‘zgarish hodisasi, lekin (*endi*→*emdi* kabi) o‘zbek yozuvida aks etmaydi;

4) [و] harfi [غ] harfiga, ya‘ni lab-tish /v/ tovushidan uvular /ʋ/ ga o‘zgarish, masalan *o‘quvchi* so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi lab /v/ tovushi uyg‘ur adabiy tilida velar /g/ yoki uvular /ʋ/ tovushiga o‘zgarib, /oquʋutʃu/ deb qattiq talaffuz qilinadi;

5) sinkopa va apokopa, ya‘ni tovush tushish hodisasi, masalan, [ر] harfi o‘rta bo‘g‘inda yoki oxiri bo‘g‘inda bo‘lsa, *بازار /bɔzɔr/* → *بازا /bɔzɔ:/* kabi.

O‘zbek va uyg‘ur tillari o‘rtasidagi yaqinlikni ilmiy jihatdan ilk bor qayd etgan olim K.K.Yudaxin regressiv assimilyatsiya hodisasini uyg‘ur tiliga xos xususiyat deb hisoblagan⁵³. I.Farmonov esa uyg‘ur tilining ta‘siri orqali o‘zbek shevasining talaffuzini qanday o‘zgartirishini quyidagicha umumlashtirgan⁵⁴:

6) lablangan /ɒ/ unlisi lablanmagan /a/ ga o‘zgarganligi, o‘zbekcha *-dan /dæn/* affiksi ham uyg‘urcha *-din /din-duun/* deb talaffuz qilinganligi;

7) *hukm /hukm/* kabi arab-fors tillaridan olingan so‘zning o‘zbekchada orqa qator /u/ unlisi o‘rniga *hökiim /høkym/* deb, birinchi bo‘g‘inida old qator /ø/ unlisi tarzida aytish;

8) tovushlarning o‘rin almashinuvi (metateza). Masalan, o‘zbek tilida “sigir suzib oldi” jumlasida “sigir usvoldi”, uyg‘urchada esa “sighir usip oldi” shaklida, hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi *o‘rta /ortæ/* so‘zi uyg‘ur adabiy tilida *ottura /ottura/* ko‘rinishida, ya‘ni tovushlarning bir-biriga o‘rin almashtirishi asosida sodir bo‘ladi.

G‘.Sadvaqasov uyg‘ur tilida o‘zbek tiliga nisbatan quyidagi fonetik me‘yoriy farqlar borligini qo‘shimcha tarzda isbotlaydi⁵⁵:

⁵¹ Мағозиев А. XIX аср ўзбек тилида уйғур тили элементлири. – 1973. – Б.40-41.

⁵² 1926-yilda nashr etilgan uyg‘ur tilining birinchi imlo kitobi “Uyg‘urcha yozuv yo‘llari”da ham uyg‘ur adabiy tilidagi ba‘zi so‘zlarning *ya* harfini *alif* yoki *hayi rasmiya* harfi tarzida yozish zarurligi ta‘kidlangan. Masalan, *نەچچە* emas, *نەچچە*, hamda *تولى* emas, *تولا* deb yozishni talab qildi. Qarang: Muhemmedi A. Uyghurche yéziq yolliri (hökümet ilmiy kəngishidin otdi). – Meskaw: SSSR ellirining merkez neshriyati, 1926. – B.29–31.

⁵³ Юдахин К.К. Ўзбек ва уйғур халқлари тилларидаги яқинлик. – 1958. – Б.32.

⁵⁴ Фармонов И. Ўш шеvasида уйғур тили элементлари. – 1959. – Б.72-73.

⁵⁵ Садвақасов Г. Язык уйгуров Ферганской долины: Очерк фонетики, тексты и словарь. – 1976. – С.270-271.

9) lab undoshning unli tovushga ta'sir etishi. Bu hodisa lab-tish /v/, lab-lab /b/, /p/, /m/ kabi lab undoshlarining til oldi unli tovushlariga ta'siri orqali amalga oshadi. Masalan, o'zbek tilida *savdo* /sæv.dɒ/ so'zi birinchi bo'g'inning oxiridagi /v/ tovushining ta'siri orqali uyg'ur tilda /so.da/ deb qisqatirib talaffuz qilinadi. Ikkinchidan, *minora* /mi.nɔ.ræ/ so'zining birinchi bo'g'inidagi old qator lablanmagan /i/ unlisi lab-lab /m/ tovushining ta'sirida lablangan til orqa /u/ unlisiga o'zgartirib talaffuz qilinadi (*munar* /mu.nar/);

10) /j/ undoshining /ʒ/ ga o'tishi. Masalan, o'zbek tilida *yil* /jil/ o'rniga uyg'ur tili esa /zil/ deb talaffuz qilinadi. T.Tolipov bu hodisani qadimgi turkiy tillarga taalluqligini ta'kidlab, tovush farqlanishini kuchaytirish maqsadida palatal /j/ qadimgi turkiy tilda /ʒ/ bilan almashtirilganligini taxmin qiladi, chunki /ʒ/ va /j/ o'rtasidagi artikulyatsiya o'rni bir-biriga ancha yaqin⁵⁶.

Shunday qilib, K.K.Yudaxin, I.Farmonov, A.Matg'oziyev, G'.Sadvaqasovlarning tadqiqotlarida tilga olingan uyg'ur va o'zbek tillari o'rtasidagi tovush o'zgarishlariga oid o'zaro fonetik qonuniyatlari, farqlari to'g'risida 10 ta bo'limdan iborat jarayonlar qiyoslangan. Ammo mazkur izlanishlar 1980-yillardan oldin o'tkazilganini hisobga olsak, bugungi uyg'urcha imlo qoidalarida aks etgan va etmagan tovush o'zgarishlariga ham so'nggi ilmiy qarashlar bilan to'xtab o'tishimiz zarur.

Yozuvda aks etmaydigan tovush o'zgarishlari:

1) **palatalizatsiya hodisasi.** Unli tovushning jarangsiz undoshlar orasiga qo'shilishi, jumladan, uyg'ur orfografiyasida hamza belgisi tarzida yoziladigan glottal to'xtash /ʔ/ tovushi yo'llarining tebranishini bostirishga olib keladi⁵⁷. Masalan, uyg'urcha شىكى so'zida bosh unli talaffuzida ikkinchi bo'g'indagi jarangsiz portlovchi /k/ tovushiga moslashgan unli /ʔikki/ bo'lib, jarangsizlikka yaqin aspiratsiya to'xtalishi /ʔ^h/ yoki palatal frikativ /ç/ tovushiga ega⁵⁸, lekin imloda o'z aksini topmaydi;

2) **to'liqsiz assimilatsiya (/n/→/m/, /l/, /j/ o'zgarishi).** Uyg'ur adabiy tilidagi /n/ tovushi turli fonetik jarayonlarda o'zidan keyin keladigan ba'zi tovushlar ta'sirida assimilatsiya hodisasi orqali ba'zan /m/, ba'zan /l/ yoki /j/ tarzida talaffuz qilinadi⁵⁹ (/n/ → /m/ *yanmu-yan* /jammu-jan/, /n/ → /l/ *yamanliq* /jamalliq/, /n/ → /j/ *on yette* /ojjette/);

3) **/q/ tovushining /ʁ/ va /χ/ ga o'zgarishi.** Jonli uyg'ur tilidagi /q/ tovushi ayrim fonetik vaziyatlarda kuchsizlashib, ba'zida /ʁ/ga, ba'zida /χ/ga almashtiriladi⁶⁰ (*xo ja*→/ʁoʒa/, *Olmaliq*→/almaliχ/).

⁵⁶ Т.Талипов (Алма-Ата). К вопросу о тенденции соноризации анлаута в истории тюркских языков (на материале уйгурского языка). // Актуальные проблемы советского уйгуроведения. Материалы I Республиканской уйгуроведческой конференции. 29-31 мая 1979 г. – 1983. – С.50.

⁵⁷ Mayer C., McCollum A., Eziz G. Issues in Uyghur phonology. – 2022. – B.20.

⁵⁸ Mayer C., McCollum A., Eziz G. Issues in Uyghur phonology. – 2022. – B.22-23; Fiddler M. Phonetic characteristics of devoiced vowels in Uyghur. // Proceedings of the 19th International Congress of Phonetic Sciences. Calhoun, S., Escudero P., Tabain M., Warren P. (tahrir ostida). – Melbourne: Australasian Speech Science and Technology Association Inc, 2019. – P.3554-3555.

⁵⁹ Abdulla A., Ebeydulla Y., Raxman A. Hazirqi zaman uyghur tili. – 2010. – B.756.

⁶⁰ Abdulla A., Ebeydulla Y., Raxman A. Hazirqi zaman uyghur tili. – 2010. – B.757.

Yozuvda aks etadigan tovush o'zgarishlari:

1) /f/ tovushining /p/ga ozgarishi. Uyg'ur tilida arab va fors tillaridan kirgan so'zlardagi /f/ tovushi uyg'ur tilida /p/ tovushiga almashtiriladi⁶¹ (*farzand*→*perzent*, *oftob*→*aptap*);

2) to'liqsiz assimilatsiya (/n/→/ŋ/ o'zgarishi). Uyg'ur tilida -ga jo'nalish kelishigi 1-, 2-shaxs birlikdagi kishilik olmoshi va *shu* ko'rsatish olmoshiga qo'shilganda mos ravishda *manga*, *sanga*, *shunga* shakllarida yoziladi, lekin /maŋ.a/ /saŋ.a/, /fuŋ.a/ deb o'zbekchadan ko'ra farqli talaffuz qilinadi. Bu o'rinda /n/ dan keyin til orqada hosil bo'ladigan velar /g/ tovushi keladi, shuning uchun burun alveolar /n/ burun velar /ŋ/ tovushiga aylanadi;

3) oxirgi bo'g'inni yopish. O'zbek adabiy tilida belgilash olmoshining unli tovush yoki yarim unli /j/ tovushi bilan tugagan oxiri bo'g'ini uyg'ur tilida /q/ tovushi bilan tugaydi. Masalan, *bunday*→*bundaq*, *shunday*→*shundaq*, *unday*→*undaq*, *qanday*→*qandaq* kabi. Bu hodisa Farg'ona vodiysidagi turkiy tillarga xos bo'lib, XV–XVI-asrlarda Alisher Navoiy va Bobur asarlarida ham kuzatiladi;

4) undosh tovushning jarangsizlashuvi. Uyg'ur tilida jarangli portlovchi /b/ oxirgi bo'g'inda jarangsiz portlovchi /p/ ga o'zgarib, xuddi shunday yoziladi⁶². O'zbek tilida ham /b/ tovushi odatda jarangsizlikka uchraydi⁶³, biroq bu yozuv qoidalariga amal qilmaydi (*bitirmoq*→*püttiürmek*, *maktab*→*mektep*). Uyg'ur va o'zbek tilida so'nggi bo'g'indagi jarangli /d/ allofon jarangsiz /t/, hamda /v-w/ → /f/ga almashtiriladi (*Mahmud*→*Mehmut*, *Musabayov*→*Musabayof*);

5) undoshlar garmoniyasi. Hozirgi uyg'ur adabiy tilida tanglay uyg'unligi qo'shimchadagi unli va undoshlarga ta'sir etib, -ga shakllari velar (-ka, -ga) yoki uvular (-qa, -ka) undoshlardan foydalaganligini aniqlaydi. Odatda, agar negizda old qator tovush bo'lsa, hosil bo'lgan shakl velar tovushga, orqa qator bo'lsa, uvular tovushga ega bo'ladi⁶⁴ (-ga: *kishige*→*kishiga*; -ka: *éghizgha*→*og'izga*; -ka: *Tashkentke*→*Toshkentga*; -qa: *qishqa*→*qishga*). Akisncha, hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'shimchani undosh o'zlashtirilishi, palatal garmoniyadan qat'i nazar, ikkita bir xil velar tovushlar birikkanda sodir bo'ladi (-ka: *yürekke*→*yurakka*; -qa: *béliqqa*→*baliqqa*). Uyg'ur tilida esa so'zning oxirgi bo'g'inida jarangli tovushlar joylashgan bo'lsa, qo'shimchaga ham ovoqli undosh qo'shiladi (*sinipka*→*sinfga*; -ta: *Tashkentte*→*Toshkentda*);

6) tovushlarning tushib qolishi. Oxirgi bo'g'indagi jarangli va jarangsiz undoshlarning tushib qolish hodisasi ham mavjud (*go'sht*→*gösh*, *O'zkand*→*Özgen*);

7) tovushlar orttirilishi. Tovushlarning orttirilish hodisasi ham uyg'ur yozuvida aks etgan: **Proteza** – so'z boshida tovush orttirilishi (*stol*→*üstel*); **Epenteza** - so'z o'rtasida tovush orttirilishi (*vaqf*→*vaqif*); **Epiteza** (austeza) - so'z oxirida tovush orttirilishi (*disk/diska*→*diska*).

Yuqorida tasvirlangan tovushlarning orttirilish hodisalari XIX asrda rus tilidan o'zlashgan so'zlarda uchraydi. O'zbek adabiy tilida anchadan beri o'rin

⁶¹ Abdulla A., Ebeydulla Y., Raxman A. Hazirqi zaman uyghur tili. – 2010. – B.750.

⁶² Abdulla A., Ebeydulla Y., Raxman A. Hazirqi zaman uyghur tili. – 2010. – B.748.

⁶³ Миргожиев М.М. Ўзбек тили фонетикаси. – 2013. – B.275.

⁶⁴ Pattillo K.E. The Typology of Uyghur Harmony and Consonants. – 2013. – B.4.

olgan arab va fors o'zlashma so'zlarida asl fonetik me'yor deyarli o'zgarishsiz saqlanib qolgan.

XULOSA

1. Qadimgi turkiy va so'g'd lingvistik an'analari aniq bir farqni ko'rsatdi. Dastlab, ikkala xalq ham yozma aloqa tizimiga ega edi, biroq turklar, asosan, chavandozlikda mohir bo'lgan va harbiy jasoratni yuksak qadrlaganliklari sababli, yozish amaliyoti ziyolilarning ixtisoslashgan qismi bilan chegaralagan. So'g'diylar asosan shahar markazlarida istiqomat qilishgan, bu ularning tijorat faoliyati talablarini qondirish uchun standartlashtirilgan yozuvni tezda ishlab chiqishga olib kelgan.

2. O'zbek va uyg'ur xalqlari qadimgi qarluq-uyg'ur turkiylarining avlodlaridir. Qarluq-uyg'ur turkiylari so'g'diylar singari savdo, me'morlik va hunarmandchilikda mohir bo'lib, o'zlarining turkiy tilini, etnik o'zligini saqlab qolish bilan birga, o'troq madaniyatga to'liq integratsiyalashgan birinchi turkiy xalqdir.

3. O'zbek va uyg'ur xalqlari o'rtasidagi til va madaniy aloqalar qoraxoniylar davrida shakllanib, XVIII–XIX asrlarda Yetti Shahr uyg'urlarining Farg'ona vodiysiga ko'chishi natijasida mustahkamlangan. A.Samoylovich, K.K.Yudaxin, A.Matg'oziyev va G'.Sadvaqasovlar bu fikrga qo'shilishgan.

4. XIX asrdan Turkiston o'lkasida bir turkiy tildagi bosma nashrlardan foydalanish imkoniyati yuzaga kelgach, milliy sarmoyadorlar qatlami tomonidan arab va fors mumtoz namunalari turkiy tarjimalari, turkiy tillar lug'atini tuzish, bosma yozuvni rivojlantirish va tarqatish orqali hozirgi o'zbek adabiy tili yaratilgan.

5. O'zbek va uyg'ur-arab yozuvlari Qirimdan Sharqiy Turkistongacha bo'lgan ulkan turkiy bilim dunyosining yo'lini belgilab bergan tatar jadid ziyolilarining umumiy fikriy inqilobidan dalolat beradi.

6. 1929-yilda o'zbek, qozoq va tatarlar to'qqizta unli harfini tanlagan bo'lsa, uyg'urlar aynan [Б] belgisini o'zlashtirmagan sakkizta unli harfiga ega edi. Chunki hozirgi uyg'ur adabiy tilining asosi bo'lgan Yettisuv-lli shevasida regressiv assimilyatsiya progressiv assimilyatsiyadan kuchlidir.

7. Hozirgi o'zbek va uyg'ur adabiy tillari bevosita Xoqoniya adabiy tilidan kelib chiqqan bo'lsa-da, o'zbek adabiy tilining imlo qoidalari XIX asrdagi turkiy yozma til imlosidan unchalik farq qilmaydi. Hozirgi uyg'ur adabiy tili esa jonli tilning xususiyatlarini muayyan darajada yozuv va talaffuzda aks ettiradi.

8. Ikki xalq tili yarim asrdan ortiq vaqt davomida mustaqil ravishda rivojlanib, turli xil yozuvlarni qabul qilganiga qaramay, ularda katta fonologik farqlar kuzatilmaydi. Eng ko'zga ko'rinadigan tafovut unlilar uyg'unligi bilan bog'liq jarayonning amalga oshishidadir, lekin bu faqat turkiy tillarning yozma va og'zaki tillari o'rtasidagi farqlardan kelib chiqadigan tabiiy holatdir.

9. Kelajakda boshqa turkiy tillar, xususan, o'zbek va uyg'ur tillarining fonetik va morfonologik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish uchun o'zbek tilshunoslari ham XFA standartidan samarali foydalanishlari talab etiladi.

**ONE-TIME SCIENTIFIC COUNCIL AUTHORIZED BY THE SCIENTIFIC
COUNCIL DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 ISSUING ACADEMIC DEGREES
AT SHAROF RASHIDOV SAMARKAND STATE UNIVERSITY**

SHAROF RASHIDOV SAMARKAND STATE UNIVERSITY

HO LIM SONG

**COMPARATIVE-TYPOLOGICAL ANALYSIS
OF MODERN UZBEK AND UYGHUR
(BASED ON PHONETICS AND ORTHOGRAPHY)**

10.00.06 – Comparative Literature, Comparative Linguistics, and Translation Studies

**DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) IN PHILOLOGY
ABSTRACT OF THE DISSERTATION**

Samarkand – 2024

The topic of the Doctor of Philosophy (PhD) dissertation is registered in the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science, and Innovation of the Republic of Uzbekistan under the number B2022.1.PhD/Fil2295.

The dissertation was completed at the Sharof Rashidov Samarkand State University.

The dissertation abstract in three languages (Uzbek, English, and Russian – resume) is posted on the Scientific Council's website (www.samdu.uz) and the Ziyonet Information & Education portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:

Makhmadiev Shavkatjan Suyunqulovich
Candidate of Philological Sciences, Lecturer

Official opponents:

Sadikov Kasimjon Pazilovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Abdushukurov Bakhtiyar Boranovich
Doctor of Philological Sciences, Professor

Leading organization:

Institute of Uzbek Language, Literature, and Folklore of the Uzbekistan Academy of Sciences

The dissertation defense will be held at the scientific council meeting numbered DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 at the Sharof Rashidov Samarkand State University on "30" August, 2024 at 11 00. (Address: 140104, Samarkand city, University Avenue, 15. Main educational building of Samarkand State University, 105. Tel.: (+99866) 240-38-49, fax (0 366) 239-11-40, (0 366) 239-12-47, E-mail: devonxona@samdu.uz).

The dissertation can be browsed at the Information Resource Center of Sharof Rashidov Samarkand State University (Registered № 68). Address: 140104, Samarkand city, University Avenue, 15. University Library Building. Phone: (+99866) 240-38-49.

The abstract of the dissertation was distributed on "05" August, 2024. (Register statement № 14 dated "05" August of 2024).



J.D. Eltazarov

One-time Chairman of the Scientific Council authorized by the Academic Council issuing Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

Z.M. Baynazarov

One-time Secretary of the Scientific Council authorized by the Academic Council issuing Academic Degrees, Doctor of Philosophy on Philological Sciences (PhD)

D.B. Urinbaeva

One-time Chairman of the Scientific Seminar authorized by the Academic Council issuing Academic Degrees, Doctor of Philological Sciences, Professor

INTRODUCTION (abstraction of Doctor of Philosophy (PhD) dissertation)

The relevance and necessity of the dissertation topic. Contemporary linguistics acknowledges the significance of examining the phonetic and orthographic principles derived from various writing systems, reevaluating their historical development through the analysis of literary works created by indigenous communities, and tracing the origins of the diverse linguistic culture inherited from prior generations. These phonetic and orthographic rules represent their language, history, and culture in an intangible manner, making them a vital component of world philology. Therefore, a key focus of modern Turkic studies is to research phonetic, writing, and orthographic reforms in Turkestan by comparing the past developments of Uzbek and Uyghur, two Southeastern Turkic dialects. Additionally, it is essential to analyze their alphabet and pronunciation while noting similarities and differences in how they developed and how social groups utilize them.

Critical issues of Turkic studies in the field of comparative linguistics encompass the linguocultural features of Turkic peoples, the rich lexical and lexicographic resources, the translation of Arabic and Persian literature into Turkic, the categorization of various pre-modern Turkic scripts and typefaces, and the complexities of identifying commonalities and differences among Turkic dialects. It is crucial to examine the interactions and collaborations among speakers of cognate languages, along with the primary factors that influence the evolution of national languages, with insights from anthropology, sociology, and linguistics. Systematically investigating the phonology of modern Uzbek and Uyghur can contribute to the progress of global linguistics by applying current innovations and methodologies in the world-standard discipline.

In recent years, there has been a focus on enhancing national identity, preserving ancestral heritage, and strengthening economic, social, historical, and cultural ties among Turkic-speaking countries within our nation's scientific community. The President of Uzbekistan emphasized similar issues at an academic conference on March 6, 2023, which focused on the educational work of the Jadid intellectuals and their impact on Turkestan's development: *“The Jadid movement emerged in various eastern Muslim nations during the late 19th and early 20th centuries, with its roots deeply embedded in Turkestan's historical context. We should prioritize the study of the Jadid intellectuals by collaborating closely with international research organizations and prominent scholars worldwide”*⁶⁵. It is important to study the writing and phonetic rules of the Turkic languages from the national revival period and to reassess the role of the Jadid intellectuals in developing our native language and nation-state.

This study would significantly contribute to fulfilling the specified legal requirements outlined below: 1) Decree № PF-4797 of the President of the Republic of Uzbekistan on May 13, 2016, “On the Establishment of the Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature”; 2) Decree №

⁶⁵ Mirziyoyev Sh. To the participants of the International Conference dedicated to the study of the heritage of Jadids. – Tashkent: National Information Agency of Uzbekistan, 2023. 6-march. (<https://yuz.uz/uz/news/jadidlar-merosini-organishga-bagishlangan-xalqaro-konferentsiya-ishtirokchilariga>)

PF-5850 of October 21, 2019, “On Measures to fundamentally Increase the Prestige and Position of the Uzbek Language as a State Language”; 3) Decree № PF-6084 of October 20, 2020, “On Measures to further Develop the Uzbek Language and Improve the Language Policy in our Country”; 4) Decree № PF-60 of January 28, 2022, “On the Development Strategy of New Uzbekistan for 2022-2026,” and 5) Decision № PQ-4479 of October 4, 2019, “On wide Celebration of the Thirtieth Anniversary of the Adoption of the Law of the Republic of Uzbekistan on the State Language”.

The alignment of the research with the priorities of science and technology development in the republic. This research was conducted by observing the principles of the republic's science and technology development, “Formation of Innovative Ideas and Methods for Implementing them in the Social, Legal, Economic, Cultural, Spiritual, and Educational Development of the Information Society and the Democratic State.”

The degree to which the problem has been studied. Regarding the topics in the first chapter, the process of national language reform among the peoples of Turkestan, W. Fierman (1991) researched the evolution of the state language in Turkestan from the emergence of the Uzbek nation to the Soviet Union's downfall⁶⁶. C. Wei (1993) examined the development of the modern Uyghur script from the 1920s to 1984⁶⁷. I. Baldauf (1993) traced the energetic language reform movements of Central Asian Turkic peoples such as Tatar, Uzbek, Kazakh, and Uyghur before Stalin's Great Purge⁶⁸. A. Khalid's works (1999, 2015) examined Central Asian print culture and the history of the revival of the Uzbek nation in the early 20th century⁶⁹. M. Uzman (2005, 2010) explored the evolution of the Uzbek writing system, which began in the 1920s⁷⁰. I. Muti'i (2013) examined the chronological evolution of the Uyghur script from its ancient origins to the present day⁷¹. D. Brophy (2016) analyzed the role of newspapers and magazines published in the territory of Soviet Turkestan in the 1920s and 1930s in shaping the Uyghur national identity⁷². H. Jamalkhanov and A. Umarov's work (2017, 2019) contributed to the research on the modern history of the Uzbek script reform⁷³. J.L.

⁶⁶ Fierman W. *Language Planning and National Development: The Uzbek Experience*. – Berlin: De Gruyter Mouton, 1991, 2010(revised edition).

⁶⁷ Wei C. An Historical Survey of Modern Uighur Writing since the 1950s in Xinjiang, China. // *Central Asiatic Journal*. 1993. № 37(3/4). – pp. 249-322.

⁶⁸ Baldauf I. *Schriftreform und Schriftwechsel bei den muslimischen Russland- und Sowjettürken (1850–1937): ein Symptom ideengeschichtlicher und kulturpolitischer Entwicklungen*. (Bibliotheca Orientalis Hungarica, Vol. XL.) – Budapest: Akadémiai Kiadó, 1993.

⁶⁹ Khalid A. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia (Comparative Studies on Muslim Societies)*. – Oakland: University of California Press, 1999.; *Making Uzbekistan: Nation, Empire, and Revolution in the Early USSR*. – Ithaca: Cornell University Press, 2015.

⁷⁰ Uzman M. *Türkistan'da dil tartışmaları Özbekçe'nin icat edilişi (1917-1940)*. – Doctoral dissertation, Gazi universiteti, 2005.; *Romanisation in Uzbekistan Past and Present*. // *Journal of the Royal Asiatic Society*. 2010. № 20(1). – pp. 49-60.

⁷¹ Muti'i I. *Uyghurlarning yéziqi we tili heqqide*. – Béijing: Milletler neshriyati, 2013.

⁷² Brophy D. *Uyghur Nation: Reform and Revolution on the Russia-China Frontier*. – Cambridge: Havard University Press, 2016.

⁷³ Жамолхонов Х., Умаров А. *Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи (I китоб)*. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2017; *Ўзбек ёзувининг XX аср тарихи (II китоб)*. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон миллий кутубхонаси, 2019.

Freeman's (2019) research discusses the impact of the printing industry in Eastern Turkestan on the modern Uyghur language culture, complementing Khalid's study on print culture in Western Turkestan⁷⁴.

As regards the works conducted after Uzbekistan's independence, H. Ne'imatov (1992), A. Abduazizov (1992), Sh. Rahmatullaev (1999), K. Mahmudov (2006), H. Jamalkhanov and K. Sapaev (2007), H. Jamalkhanov (2009), M.M. Mirtajiev (2013), D.A. Nabieva and H.R. Zakirova (2016), J.D. Eltazarov (2017), K. Sadikov (2021) have made substantial contributions to the field of modern Uzbek phonetics and orthography⁷⁵.

